O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.01.2020. K/T. 104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI

BO ZHAO

MARKAZIY OSIYODA O‘SADIGAN *ACONITUM* VA *DELPHINIUM* TURKUM O‘SIMLIKLARINING DITERPENOID ALKALOIDLARI VA ULARNING BIOLOGIK FAOLLIGINI O‘RGANISH

02.00.10 – Bioorganik kimyo

KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

UO‘T: 54.112+547.94+541.14

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Contents of thesis abstract of doctor of sciences (DSc)

O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.01.2020. K/T. 104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI

BO ZHAO

MARKAZIY OSIYODA O‘SADIGAN *ACONITUM* VA *DELPHINIUM* TURKUM O‘SIMLIKLARINING DITERPENOID ALKALOIDLARI VA ULARNING BIOLOGIK FAOLLIGINI O‘RGANISH

02.00.10 – Bioorganik kimyo

KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/K.... raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi instituti va Xitoy Fanlar akademiyasi Shinjon fizika va kimyo texnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) (www.uzicps.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Sagdullaev Shamansur Shaxsaidovich** texnika fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Yunusov Marat Sabirovich** kimyo fanlari doktori, Rossiya fanlar akademiyasi akademigi
	Xodjaniyazov Xamid Utkirovich kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim
	Mamadaliyeva Nilufar Zokirjonovna kimyo fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent Farmatsevtika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek ko‘ch., 77. Tel.: (+99871) 262-59-13, faks: (+99871) 262-73-48, e-mail plant.inst@icps.org.uz, ixrv@mail.ru.

Dissertatsiya bilan O‘simlik moddalari kimyosi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 77. Tel.: (+99871) 262-59-13, faks: (+99871) 262-73-48, e-mail: nhidirova@yandex.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ da tarqatildi.

(2025-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

B.J. Elmuradov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash rais-o‘rinbosari,
kimyo fanlari doktori, professor
N.K. Xidirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
kimyo fanlari nomzodi., katta ilmiy xodim
E.X. Botirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,kimyo fanlari doktori, professor
.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda farmatsevtika sanoatida tabiiy moddalar asosida yaratilayotgan yangi dori vositalari har tomonlama afzalligi jihatidan doim muhim o‘rin tutib kelgan, shuning uchun o‘simlik xom ashyolaridan olinadigan fiziologik faol moddalarga bo‘lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda. Bugungi kunda tarkibida turli xil moddalar saqlagan o‘simliklardan individual moddalarni ajratib olish, ularning biologik faolliklari, fizik-kimyoviy hususiyatlarini aniqlash va ularni ishlab chiqarishga tadbiq etish bo‘yicha bir qancha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ular tuzilishining xilma xilligi, kimyoviy polifunksionalligi, yuqori fiziologik faolligi va ular asosida dorivor vositalar yaratishda katta imkoniyatga ega ekanligi bilan diterpen alkaloidlari kimyogarlar va farmakologlarning diqqatini jalb etib kelmoqda.

Markaziy Osiyoda o‘sadigan *Aconitum* va *Delphinium* turkumiga xos ba’zi turlarining quritilgan ildizlari an’anaviy Xitoy tabobatida antiaritmiyaga qarshi, og‘riq qoldiruvchi yoki o‘smaga qarshi vosita sifatida ko‘p kasalliklarni davolashda keng qo‘llaniladi.

Xitoy florasida o‘suvchi *Delphinium* turkum o‘simligini fitokimyoviy tadqiqotlari natijasida diterpen alkaloidlari ajratilgan va ularning biologik faolliklarini o‘rganish natijasida yallig‘lanishga qarshi, og‘riq qoldiruvchi, aritmiyaga qarshi, shuningdek, insektitsid va antifeedant kabi xususiyatlari tekshirilgan.

O‘simlik moddalari kimyosi institutida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Xitoy florasida o‘suvchi *Aconitum barbatum* var. *puberulum* va *Delphinium iliense* o‘simliklarining kimyoviy tarkibi bir biriga o‘xshamasligi, *Aconitum barbatum* var. *puberulum* dan ajratib olingan diterpen alkaloid - *N*-acetylsepaconitin va *N*-deacetyllappaconitin ning antiaritmik xususiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, *Delphinium iliense* o‘simligidan ajratib olingan Sinchianidin C va D lar analgetik ta’sirga egaligi namoyon bo‘ldi. Bu esa mahaliy xom ashyo asosida import o‘rnini bosuvchi dori vositalarini yaratish, aholini arzon, sifatli dori vositalari bilan ta’minlash imkonini beradi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi PF-55-son “2022-2026 yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni, 2018 yil 14 fevraldagi PQ-3532-son “Farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojdantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi, 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-son “Tibbiyot va Farmatsevtika ta’limi va ilm fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tug‘risida” [1] gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi..

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston va Xitoy davlat dasturlari doirasida Markaziy Osiyodagi endemik *Aconitum* va *Delphinium* o‘simliklaridan yangi tuzilishli diterpenoid alkaloidlarini izlab topish, antiaritmiya, og‘riq qoldiruvchi va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026” yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni.

o‘smaga qarshi ta’sirlarni tekshirish kabi dolzarb vazifalarni bajarishga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqotlar samarali va kam zaharli diterpenoid alkaloid innovatsion dori vositalarini yanada rivojlantirish hamda Markaziy Osiyoda o‘ziga xos o‘simlik manbalaridan barqaror foydalanish va rivojlantirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi hamda inson salomatligi uchun foydali bo‘lgan yangi faol tabiiy mahsulotlarni topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning O‘zbekiston va Xitoy fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot Xitoy Xalq Respublikasi Fan va texnologiyalar sohasidagi hamkorlik bo‘limi va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati hamkorlik qo‘mitasining ikkinchi majlisini o‘tkazish to‘g‘risidagi 2014-yil 17-iyulda imzolangan hukumatlararo bitimlar to‘g‘risidagi memorandumga muvofiq bajarilgan. Shuningdek, tadqiqot Xitoy Xalq Respublikasi Fan va texnologiyalar sohasidagi hamkorlik bo‘limi va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati hamkorlik qo‘mitasining 2017-yil 15-fevralda imzolangan uchinchi majlisi; 2019-yil 24-iyulda imzolangan to‘rtinchi majlisi; va 2021-yil 28-iyun kungi beshinchi majlisi kelishuvlariga muvofiq bajarilgan. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot yaqinda bo‘lib o‘tgan Oliy darajadagi ikki tomonlama uchrashuvlarda e’lon qilingan “Yangi davrda Xitoy-O‘zbekiston” keng qamrovli Strategik sheriklik doirasida belgilangan maqsadlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu hamkorlik innovatsiyalar, biotexnologiyalar, an’anaviy tibbiyot va yashil rivojlanish kabi sohalarda har tomonlama hamkorlikni, shu bilan birga tabiiy mahsulotlar va farmatsevtika kashfiyoti bo‘yicha hamkorlikda tadqiqotlar uchun kuchli siyosat poydevori va o‘zaro manfaatdorlikni ta’minlaydi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Diterpenoid alkaloidlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida olib borilgan, shu jumladan: Georgia universitetining Tabiiy mahsulotlar tadqiqot instituti va kimyo bo‘limi (AQSh); G‘arbiy Xitoy farmatsiya, Sichuan universitetining Dorivor tabiiy mahsulotlar kimyosi kafedrasi (Xitoy); O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akad. S.Yu.Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi instituti (O‘zbekiston); Rossiya Fanlar akademiyasining Ural bo‘limi Organik kimyo instituti (Rossiya); Xokkaydo farmatsevtika universitetining Farmatsevtika maktabi (Yaponiya); Xitoy Fanlar Akademiyasining Kunming Botanika instituti (Xitoy); Janubi-g‘arbiy Jiaotong universitetining Hayot fanlari va muhandislik maktabi (Xitoy); Xitoy Fanlar akademiyasining Shinjon fizika va kimyo texnika instituti (Xitoy) va boshqalar tomonidan o‘simlik xom ashyosidan diterpenoid alkaloidlari asosida dori vositalari yaratish bilan bog‘liq nazariy va amaliy tadqiqotlar sohasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqotlar mazmuni diterpen alkaloidlarini *Aconitum*, *Delphinium* va boshqa o‘simliklardan ajratib olish, tuzilishini aniqlash, biofaolliklarini skrining qilish, tuzilish-biologik faollik munosabatlarini tadqiq qilish, alkaloidlar, farmakologik, farmakodinamik va toksikologik tadqiqotlar va boshqalarni qamrab oladi.

Diterpenoid alkaloidlarini tadqiq qilish deyarli 100 yildan buyon davom etib kelayotgan, hozir ham dolzarb bo‘lgan mavzudir. Bir tomondan, o‘zining murakkab va o‘zgaruvchan tuzilishi sababli turli xil biologik faollikka ega; boshqa tomondan, ularning faolligi va zaharliligi ko‘pincha birga namoyon bo‘ladi. Shuning uchun nafaqat ularning strukturasining o‘zgarishiga e’tibor berish, tuzilishi va faolligi

o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, balki tadqiqot jarayonida ularning zaharliligiga ham e’tibor qaratish, qo‘shimcha qiymati yuqori bo‘lgan yuqori samarali va kam zaharli dori birikmalarini topish lozim.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Diterpenoid alkaloidlari birinchi marta 1830-yillarda kashf etilgan bo‘lsa-da, ularning murakkab tuzilishi sababli mutlaq konfiguratsiyasi 1950-yillarga kelibgina, rentgen monokristal difraksiyasi va boshqa usullar bilan aniqlandi. Spektral texnologiyalar, xususan, massa-spektrometriya va yadro magnit rezonansining keng tatbiq etilishi natijasida diterpenoid alkaloidlarini tadqiq qilish, ayniqsa, Jorjiya universitetining Tabiiy mahsulotlar ilmiy-tadqiqot instituti va kimyo kafedrasi professori S.W. Pelletier, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘simlik moddalari kimyosi instituti professori S.Y. Yunusov va Sichuan universiteti G‘arbiy Xitoy farmatsiyasi Dorivor tabiiy mahsulotlar kimyosi kafedrasi professori F.P. Wang tadqiqotlari natijasida jadal rivojlandi.

Diterpenoid alkaloidlarning yallig‘lanishga qarshi, og‘riq qoldiruvchi, antiaritmik, kardiotonik, yurak etishmovchiligiga qarshi va hasharotlarga chidamli ta’sirga ega ekanligi aniqlaganidan keyin, tobora ko‘proq olimlar diterpenoid alkaloidlarini tadqiq qilishga kirishdilar, shu jumladan, o‘zbek va rus olimi M.S. Yunusov, yapon olimi K. Wada, Xitoylik olimlar X.J. Hao, X.L. Zhou, H.A. Aisa va boshqalar. Ko‘pgina olimlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan hozirgi vaqtda o‘simliklardan 1600 dan ortiq tabiiy diterpenoid alkaloidlar topilgan bo‘lib, ulardan 4 ta diterpenoid alkaloidi: lappakonitin, bulleyakonitin A, 3-atsetilakonitin va guan-fu asosi A ni klinik amaliyotdagi antiaritmik yoki analgetik preparatlarga aylantirilgan.

O‘zbekistonda ilk bor diterpenoid alkaloidlarining tuzilishi va faolligini o‘rganish akademik S.Y. Yunusov rahbarligida O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi institutida boshlangan. Yangi tuzilishdagi va yaxshi biologik faollikka ega ko‘plab diterpenoid alkaloidlari *Aconitum, Delphinium* va *Consolida* turlaridan ajratilgan. O‘MKI da akademik Sh.Sh. Sagdullaev rahbarligida lappakonitin alkaloidi asosida antiaritmik xossaga ega Allapinin preparatini yaratildi, u Rossiya va O‘zbekistonda ro‘yxatga olingan va 2007 yilda O‘zbekiston Fan va texnologiya Milliy mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Aconitum va *Delphinium* turkumiga mansub bo‘lgan o‘simliklarning ekstraktlari va alohida birikmalarining farmakologik faolligi keng qamrovli bo‘lib, hozirga qadar to‘liq o‘rganilmaganligi ushbu yo‘nalishda ilmiy amaliy tadqiqotlar olib borish qanchalik dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu dissertatsiya ishi muallifi tomonidan Markaziy Osiyoda o‘suvchi *Aconitum* va *Delphinium* turkumiga mansub bo‘lgan o‘simliklarning diterpen alkaloidlari va boshqa biologik faol komponentlarini o‘rganish bo‘yicha olib borilayotgan tizimli tadqiqotlarning davomi hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Xitoy Fan va texnologiyalar vazirligining “Madaniy *Consolida sp.* o‘simligining C_{20}-diterpenoid alkaloidlari: ajratib olsih, tuzilishi, biologik xossalari” (№ 2016YFE0120700, 2017-2018) nomli Milliy asosiy tadqiqot va ishlanmalar dasturiga (Xitoy va O‘zbekiston hukumatlari o‘rtasidagi xalqaro ilmiy-texnikaviy innovatsion hamkorlik) muvofiq amalga oshirildi. “Analgetik va mahalliy anestetik ta’sirga ega

(faolliklari) yangi antiaritmik preparatlarni tadqiq qilish va ishlab chiqish” (№ 2021YFE0104000, 2021-2023); Xitoy Fan va texnologiyalar vazirligining “Yangi dori vositalari va innovatsion dori vositalarini tadqiq qilish bo‘yicha Xitoy-O‘zbekiston “Kamar va yo‘l” qo‘shma laboratoriyasini qurish” nomli Milliy asosiy tadqiqot va ishlanmalar dasturi (№ 2020YFE0205600, 2020-2023); Shinjon-Uyg‘ur Muxtor viloyati Fan va texnologiya boshqarmasining “Diterpenoid alkaloidlarini ajratish va tahlil qilish va ularning dori-darmonliligini o‘rganish” nomli Xalqaro fan va texnologiya hamkorlik loyihasi (№ 20166014, 2016-2018); Xitoy Milliy Tabiatshunoslik Fondining Yoshlar jamg‘armasi “LC-DAD-MS asosida ikkita Markaziy Osiyoga xos bo‘lgan o‘simliklardan yangi diterpenoid alkaloidlarni kashf qilish va ularning biologik faolligini tadqiq qilish” (№ 32000277, 2021-2023) nomli loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Markaziy Osiyoda o‘sadigan *Aconitum* va *Delphinium* turkumlariga mansub 7 tur o‘simliklarning ikkilamchi metabolitlarini ajratib olish, kimyoviy tarkibi va tuzilishini aniqlash hamda ular asosida samarali dori vositalarini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1. *Aconitum* va *Delphinium* turkumiga mansub o‘simlik turlari xom ashyolarini turli organik erituvchilar yordamida ekstraksiya qilish va fraksiyalarga ajratish, alkaloidlar yig‘indisini ajratib olish;
2. Yuqoridagi o‘simliklardan olingan alkaloidlar yig‘indisidan sof birikmalarni ajratib olish va tozalash;
3. Ajratilgan birikmalarning birlamchi tuzilishi va yangi birikmalarning absolyut konfiguratsiyasini aniqlash;
4. Individual birikmalarining biologik ta’sirini, shu jumladan, antiaritmik, ion kanallarini ingibirlovchi, og‘riq qoldiruvchi, o‘smaga qarshi va mikroblarga qarshi faolliklarini baholash;
5. *Delphinium naviculare var. lasiocarpum* tarkibidagi lappakonitin miqdorini aniqlash;
6. Allapinin substansiyasidagi aralashmalarni ajratish jarayonini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida *Aconitum* va *Delphinium* turkumiga oid 7 ta tur o‘simlik turlari tanlangan: *Aconitum barbatum* var. *puberulum* Ledeb, *Aconitum smirnovii* Steinb, *Aconitum sinchiangense* W. T. Wang, *Delphinium pseudoaemulans* C. Y. Yang et B. Wang, *Delphinium naviculare* var. *lasiocarpum* W. T. Wang, *Delphinium aemulans* Navski, *Delphinium iliense* Huth o‘simliklari va Allapinin substansiyasi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Markaziy Osiyoda o‘sadigan *Aconitum* va *Delphinium* turlarining diterpenoid alkaloidlari va boshqa komponentlari va ularning biologik faolliklari; Allapinin substansiyasi aralashmalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida texnologik (erituvchi yordamida ekstraksiya, dekompression konsentrlash, xromatografik ajratish, spektral tahlil), xromatografik (silika gel, sefadeks LH-20 va ODS kolonkali xromatografiya, Flesh, YuQX, YuSSX), fizik-kimyoviy va spektral tahlil (UB, IQ, Optik burilish, ESI-MS, 1D va 2D YaMR, experimental va hisoblash ESD) usullaridan foydalanildi. Antiaritmik faollikni aniqlashda aritmiya modeli, analgetik faollikni sinash uchun *in*

vivo modeli, hEGR va CaV3.1 kanallari ion kanallarini ingibirlash faolligini aniqlashda, o‘smaga qarshi faollikni (sitotoksiklikni) tekshirish uchun MTT (3-(4,5-dimetiltiazol-2-il)2,5-difeniltetrazoliy bromid) usuli, mikroblarga qarshi faollikni aniqlash uchun agar qudug‘ida diffuziya usuli qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

birinchi marta Markaziy Osiyoda o‘sadigan *Aconitum* va *Delphinium* turkumining yetti turdagi o‘simliklari tarkibidan jami 176 ta birikma, shu jumladan, 26 ta yangi va 107 ta ma’lum diterpenoid alkaloidlar, shuningdek, 43 ta boshqa sinf birikmalari ajratilgan;

ajratib olingan diterpenoid alkaloidlarining fizikaviy va kimyoviy xossalari hamda, antiaritmik, analgetik, o‘smaga qarshi va mikroblarga qarshi biologik faolligi tizimli ravishda tadqiq qilingan;

ilk bor *Aconitum barbatum var. puberulum* (N-acetylsepaconitin va N-deacetyllappaconitin) va *Delphinium iliense* (Sinchianidin C va D) o‘simliklari tarkibidan yangi birikmalar ajratib olingan;

Aconitum barbatum var. puberulum dan C20-diterpenoid alkaloidlarining yangi uglerod skeletli vakili barpuberudin (AB-1), qayta guruhlangan yangi C18-diterpenoid alkaloidlari barpubeninlar A-B (AB-6 va AB-7) ilk bora aniqlangan;

birinchi marotaba *Delphinium naviculare var. lasiocarpum* o‘simligining kimyoviy tarkibi tadqiq qilingan va lappakonitin mavjudligi aniqlangan;

ilk marotaba *Aconitum smirnovii* o‘simligidan ajratilgan smirnotin A ning antiaritmik faolligi, shuningdek, *Delphinium iliense* o‘simligidan ajratib olingan sinchianidin C va D larining analgetik ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan;

birinchi marta yarim-preparativ YuSSX va preparativ YuSSX texnologiyalarini birlashtirilgan holda foydalanib, Allapinnin substansiyasidan oltita standart alkaloidlar ajratilgan, bu esa Allapinin substansiyasi sifatini nazorat qilishda tozalik standartlarini ta’minlash imkonini bergan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Aconitum barbatum var. *puberulum* dan ajratilgan *N*-deasetillappakonitin va *N*-asetilsepakonitin sezilarli antiaritmik faollik ko‘rsatgan, *Aconitum barbatum* var. *puberulum* dan ajratilgan sepakonitin va *Aconitum smirnovii* dan ajratilgan smirnotin A o‘rtacha antiaritmik faollikni ko‘rsatgan. Antiaritmikning dastlabki tuzilish-faollik munosabatlari ushbu tadqiqot natijalari va adabiyot ma’lumotlari asosida muhokama qilingan. Bu topilmalar endemik dorivor o‘simlik resurslarini barqaror rivojlantirish va ulardan foydalanishga yordam beradi va tabiiy mahsulotlardan olingan yangi dori nomzodlarini klinika-oldi baholash zaruratini tasdiqlaydi.

Delphinium iliense-dan ajratilgan sinchianidin C va D lar zaharli bo‘lmagan 5 mg/kg dozada mos ravishda 78.16% va 72.54% burishishni kamaytirish bilan potensial og‘riq qoldiruvchi ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. *Delphinium iliense* dan diterpenoid alkaloidlarini tayyorlash usuli va ularni potensial analgetik sifatida qo‘llash mumkinligi ishlab chiqilgan.

Delphinium aemulans dan diterpenoid alkaloidlarini tayyorlash usuli va ularning kuchlanish bilan bog‘liq kaliy kanali oqimlarini (IKv) ingibirlovchi potensiali ishlab chiqilgan. *Delphinium pseudoaemulans* dan diterpenoid alkaloidlarini tayyorlash usuli va ularning potensial o‘smaga qarshi qo‘llanilishi ishlab chiqilgan.

Allapinin substansiyasidan oltita standart alkaloidlar muvaffaqiyatli ajratildi va ajratish usullari ishlab chiqildi, bu Allapinin substansiyasining sifatini nazorat qilishda tozalik standartlarini ta’minlash uchun ishonchli yondashuvni ta’minlaydi.

D. naviculare var. *lasiocarpum* o‘simligida lappakonitin (0.25%) borligi topilgan bo‘lib, bu lappakonitinning yangi potensial zaxira manbasini ta’minlagan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xromatografik (silikagel, sefadeks LH-20 va ODS kolonnali xromatografiya, Flash, YuQX, YuSSX va PYuSSX), texnologik (erituvchi ekstraktsiya, dekompressiya kontsentratsiyasi, xromatografik ajratish va spektral tahlil), fizik-kimyoviy va spektral analitik (UB, IQ, Optik aylanish, ESI-MS, 1D, 2D YaMR) va eksperimental hisoblash, va hisoblash usullari hamda biologik usullarni qo‘llanganligi bilan isbotlandi. Natijalarning haqqoniyligi ularning xalqaro va respublika miqyosidagi ilimiy konferensiyalarda muhokama qilinganligi hamda taqriz qilinuvchi xorijiy va mahalliy ilmiy nashrlarda chop etganligi, Xitoyning Shinjon va Qinghai provinsiyalarida lappakonitinni ishlab chiqarish uchun xom ashyo manbasi sifatida foydalanish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Markaziy Osiyo hududida o‘suvchi *Aconitum* va *Delphinium* turkumi o‘simliklari yer ustki qismidan tabiiy yangi diterpen alkaloidlari ajratilganligi va ularning kimyoviy tuzilishi aniqlanganligi tabiiy birikmalar kimyosini boyitishi bilan izohlanadi. Jami 176 ta birikma, shu jumladan 26 ta yangi va 107 ta ma’lum bo‘lgan diterpenoid alkaloidlar, shuningdek, 43 ta boshqa birikmalar ajratilgan. Ularning strukturalari spektroskopik tahlillar (HR-ESI-MS, 1D NMR va 2D NMR) va adabiyotda keltirilgan ma'lumotlar bilan taqqoslash orqali aniqlandi, yangi birikmalarning mutlaq konfiguratsiyasi esa kvant ECD hisobi bilan aniqlandi. Aconitum barbatum var. puberulum dan ajratilgan barpuberudin C_{20}-diterpenoid alkaloid uglerod skeletiga ega bo‘lsa, barpubeninlar A-B qayta guruhlangan birinchi tipdagi C_{18}-diterpenoid alkaloidlari hisoblanadi. Ushbu uchta birikma biogenezining ehtimoliy yo‘llari taklif qilingan. Monomer birikmalarining biologik faolligi, jumladan, antiaritmik, analgetik, ion kanallarini ingibirlovchi faolligi, sitotoksikligi va mikroblarga qarshi faolligi baholangan. Tadqiqot natijalari va adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, antiaritmik va og'riq qoldiruvchi vositalarning dastlabki tuzilish-faollik munosabatlari muhokama qilingan. *Aconitum barbatum* var. *puberulum* va *Delphinium iliense* o‘simliklaridan olingan *N*-atsetilsepaconitin va *N*-deatsetillappaconitin, Sinchianidin C va D lar farmakologik tekshiruvlar natijasida antiaritmik, analgetik xususiyatga ega vositalar yaratish uchun asos bo‘lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, lappakonitin Delphinium naviculare var. lasiokarpum butun o'simlikda 0,25% ni tashkil qiladi, o‘simlik lappakonitinning manbai ekanligi aniqlangan. Allapinin substansiyasi tarkibidagi oltita alkaloid ajratilib, standart sifatida foydalanishga tavsiya etildi. Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyodagi Aconitum va Delphinium turlarining fitokimyoviy va farmakologik tadqiqotlarini rivojlantiradi va mintaqani biofaol tabiiy moddalar uchun muhim manba sifatida joylashtiradi. Strukturaviy kashfiyotlar, biofaollik profili va barqaror manbalarni rivojlantirish integratsiyasi kelajakda diterpenoid alkaloidlarga asoslangan terapevtik vositalar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Markaziy Osiyoda o‘sadigan Aconitum va Delphinium turkum o‘simliklarining diterpenoid alkaloidlari va ularning biologik faolligini o‘rganish” bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari asosida:

Delphinium pseudoaemulans o‘simligi diterpenoid alkaloidlarini ajratish va tozalash, shuningdek, ularning in vitro inson saratoni A549 va HeLa hujayralariga sitotoksikligi natijalari asosida o‘smaga qarshi vosita yaratish ixtirosiga Xitoy Xalq respublikasi patenti (№ ZL201810714295.7, 2018 yil) olingan. Natijada o‘simlik alkaloidlari asosida ekologik toza, samarali dori vositasi yaratish imkonini bergan;

Delphinium aemulans o‘simligi diterpenoid alkaloidlari asosida kaliy kanali (IKv) toklarini ingibirlash ixtirosi uchun Xitoy Xalq respublikasi patenti olingan (№ 2024100199358, 2024 y). Natijada o‘simlik alkaloidlari asosida kaliy kanalini ingibirlovchi yangi vosita yaratish imkonini bergan;

Delphinium iliense Huth osimligi diterpenoid alkaloidlaridan potensial analgetik vosita ishlab chiqish ixtirosiga Xitoy Xalq respublikasi patenti olingan (№ 2025103304327, 2025 y). Natijada o‘simlik diterpenoid alkaloidlari asosida samarali analgetik vositalar yaratish imkonini bergan;

Shinjon Shafei Ya Biological Technology Co., Ltd (Xitoy X.R.) va Xitoy Fanlar Akademiyasi Shinjon Fizika va kimyo texnika instituti (XTIPC) bilan xamkorlik bitimiga asosan ko‘p miqdorda lappakonitin ishlab chiqarish uchun Delphinium naviculare var. lasiocarpum o‘simligi xomashyosi bilan ta’minlashni kafolatlab Xitoyning Shinjon va Sinxay viloyatlarida madaniylashtirish bo‘yicha tadqiqot ishlarini boshlagan (Xitoy Xalq Respublikasi Shinjon Shafei Ya Biological Technology Co., Ltd ma’lumotnomasi15.05.2025y). Natijada o‘simlik diterpenoid alkaloidlari asosida samarali dori vositasi islab chiqarish uchun xomashyo bilan ta’minlash kafolatlangan;

Allapinin substansiyasininig farmakologik faol qo‘shimchasi (FFQ) sifatini nazorat qilish uchun O‘simlik moddalari kimyosi institutining GMP korxonasida tozalik standartlari sifatida ajratilgan to‘rtta birikmadan foydalanilgan (O‘simlik moddalari kimyosi institutining 23.06.2025y., 01-02/499-son malumotnomasi). Natijada Allapinin substansiyasini ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish tizimini yaxshilash, me’yoriy hujjatlarga muvofiqligini ta’minlash va klinik sharoitlarda qo‘llashni kengaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 7 ta, jumladan 4 ta halqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 24 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ning kimyo fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 14 ta maqola xalqaro jurnallarda nashr etilgan va 3 ta Xitoy Xalq Respublikasi patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 229 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, maqsad va vazifalar, tadqiqot ob'ektlari va predmetlari ifodalangan, tadqiqotning Xitoy va O‘zbekiston fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo‘yicha xulosa qilingan hamda chop etilgan patentlar va maqolalar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"*Aconitum* va *Delphinium* turkum o‘simliklari diterpen alkaloidlari sharhi"** deb nomlangan **birinchi bobida** adabiyotlar tahlili keltirilgan. Diterpenoid alkaloidlarning klassifikatsiyasi, tuzilish xususiyatlari, biologik faollik xususiyatlari, struktura-faollik munosabatlari va amaliy qo‘llash imkoniyatlari haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston va Xitoyning Shinjon viloyatida yetishtiriladigan *Aconitum* va *Delphinium* turkumlari ham o‘rganilib, umumlashtirilgan.

Dissertatsiyaning "**Markaziy Osiyoda o‘sadigan *Aconitum* va *Delphinium* turkumlaridan kimyoviy birikmalarni ajratib olish, tozalash va biofaolligini tekshirish jarayonlari (Materiallar va usullar)**" deb nomlangan **ikkinchi bobida** umumiy tajribaviy amaliyotlar, jumladan *Aconitum barbatum* var. *puberulum*, *Aconitum smirnovii*, *Aconitum sinchiangense*, *Delphinium pseudoaemulans*, *Delphinium naviculare* var. *lasiocarpum*, *Delphinium aemulans* va *Delphinium iliense* o‘simliklaridan kimyoviy birikmalarni ajratib olish, tozalash va biologik faolligini sinovdan o‘tkazish jarayonlari; *Delphinium naviculare* var. *lasiocarpum* dagi lappokonitin miqdorini aniqlash; shuningdek, Allapinin substansiyasidan notoza qo‘shimchalarni ajratish va tozalash keltirilgan. Mazkur tadqiqotda texnologik (erituvchili ekstraksiya, decompression konsentrlash, xromatografik ajratish, spekt tahlillari), xromatografik (silika gel, sefadeks LH-20 va ODS kolonkali xromatografiya, Flesh, YuQX, YuSSC) usullardan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning "**Natijalar va ularning muhokamasi (dissertatsiyaning asosiy mazmuni)**" deb nomlangan uchinchi bobida *Aconitum barbatum* var. *puberulum*, *Aconitum smirnovii*, *Aconitum sinchiangense*, *Delphinium pseudoaemulans*, *Delphinium naviculare* var. *lasiocarpum*, *Delphinium aemulans* va *Delphinium iliense* o‘simliklaridan kimyoviy birikmalarni ajratish, tozalash va biologik sinovlardan o‘tkazishda olingan natijalar muhokama qilingan; *Delphinium naviculare* var. *lasiocarpum* tarkibidagi lappakonitin miqdorini aniqlash; shuningdek, Allapinin substansiyasidan qo‘shimchalarni ajratish va tozalash ishlari olib borilgan. Mazkur tadqiqotda fizik-kimyoviy va spektral tahlil (UB, IQ, Optik burilish, ESI-MS, 1D va 2D YaMR, eksperimental va hisoblash ESD) usullari qo‘llanilgan. Antiaritmik faollikni aniqlash uchun akonitin tomonidan qo‘zg‘atilib behush qilingan sichqonlarning aritmiya modeli ishlatilgan; analgetik faollikni sinash uchun sirka kislota bilan qo‘zg‘atadigan sichqonlarning burishishining *in vivo* modeli ishlatilgan; hEGR va CaV3.1 kanallari ion kanallarini ingibirlash faolligi uchun ishlatilgan; 3-(4,5-dimetiltiazol-2-il)2,5-difeniltetrazoliy bromid (MTT) usuli o‘smaga qarshi

faollikni (sitotoksiklikni) tekshirish uchun, mikroblarga qarshi faollikni aniqlash uchun agar quduq diffuziya usuli qo‘llanilgan.

***Aconitum barbatum* var. *puberulum* tarkibidagi kimyoviy birikmalar tadqiqoti.** Markaziy Osiyo o‘simlik manbalaridan noyob tuzilish va kuchli biofaollikka ega birikmalarni topish bo‘yicha uzluksiz tadqiqotlar doirasida O‘rta Osiyodan to‘plangan *A. barbatum* var. *puberulum* o‘simligini fitokimyoviy tekshirish o‘tkazildi. Natijada ilgari adabiyotlarda ma’lum bo‘lmagan ettita diterpenoid alkaloidlari: barpuberudin (**AB-1**), barpubezinlar A-D (**AB-2~AB-5**), barpubeninlar A-B (**AB-6~AB-7**), va 37ta ma’lum birikmalar, 15-Ketotetrogidroatizin (**AB-8**), leukoztomin A (**AB-9**), *N*-atcetilsepakonitin (**AB-10**), *N*-deatcetillappakonitin (**AB-11**), sepakonitin (**AB-12**), akoseptisin (**AB-13**), lappakonidin (**AB-14**), trabzonin (**AB-15**), lappakonitin (**AB-16**), puberulin C (**AB-17**), leukostin (**AB-18**), leukonin (**AB-19**), sepakonitin aminospirti (**AB-20**), lappakonin (**AB-21**), akozanin (**AB-22**), akoseptrin (**AB-23**), 6-degidroakozanin (**AB-24**), antranoillikoktonin (**AB-25**), O-metilarmepavin (**AB-26**), (S)-6-Metoksi-1-(4-metoksibenzil)-2-metil-1,2,3,4-tetragidroizoxinolin-7-ol (**AB-27**), (+)-(1R,laR)-la-gidroksimagnokurarin (**AB-28**), (6R,6aS,P)-(+)-koridin (**AB-29**), (+)-*N*-metillaurotetanin (**AB-30**), magnoflorin (**AB-31**), 3-gidroksi-1,2-dimetoksi-5-metil-5H-dibenzoindol-4-on (**AB-32**), imperialin (**AB-33**), krispin B (**AB-34**), (S)-1-(3-Metoksifenil)-*N*-metilpropan-2-amin (**AB-35**), metil 2-(atsetamino)benzoat (**AB-36**), 2-karboksioksanilin kislotasi metil efiri (**AB-37**), 4-[2-(metoksikarbonil) anilin]-4-oksobutan kislota metil efiri (**AB-38**), *N*-metilkoridaldin (**AB-39**), *N*-metil-6,7-dimetoksiizoqinolon (**AB-40**), (5*S*,6*R*,7*S*,8*R*)-5-amino-(2Z,4Z)-1,2,3-trigubuta-2,4-dieniloksi-pentan-6,7,8,9-tetraol (**AB-41**), nicotinic acid (**AB-42**), S(+)-dehydrovomifoliol (**AB-43**) va megastigman (**AB-44**), va 19ta ma’lum diterpenoid alkaloidlar ajratildi. Ularning tuzilishi (**1-rasm**) keng qamrovli spektroskopik HR-ESIMS va 1D va 2D NMR ma’lumotlar tahlili asosida aniqlandi, shu jumladan (**2-rasm** va **3-rasm**).



1-Rasm. *Aconitum barbatum* var. *puberulum* o‘simligidan ajratilgan **AB-1**~**AB-44** birikmalar tuzilishi

Barpuberudin (**AB-1**) yangi turdagi C_{20}-diterpenoid alkaloidi uglerod skeletiga ega bo‘lsa, A-B barpubeninlar (**AB-6 ~ AB-7**) esa qayta guruhlangan C_{18}-diterpenoid alkaloidlarilarning birinchi namunasi hisoblanadi. Barpuberudin va A-B barpubeninlar biogenezining ehtimoliy yo‘li muhokama qilindi (**4-rasm** va **5-rasm**).



2-Rasm. AB-1~AB-7 birikmalarning asosiy HMBC va ^{1}H-^{1}H COSY korrelyatsiyalari



3-Rasm. AB-1, **AB-2**, **AB-5** va **AB-6** birikmalarining NOESY korrelyatsiyalari



4-Rasm. Barpuberudin (**AB-1**) biosintezining taxminiy yo‘li



5-Rasm. Barpubeninlar A-B (**AB-6~AB-7**) biosintezining taxminiy yo‘li

N-atsetilsepakonitin (**AB-10**) va *N*-deatsetillappakonitin (**AB-11**) akonitin bilan qo‘zg‘atilgan aritmiya sichqoncha modelida 8 mg/kg dozada sezilarli antiaritmik faollik ko‘rsatdi (**1-jadval**). Sepakonitininning (**AB-12**) ma’lum antiaritmik faolligi bor bo‘lsa-da, *N*-detasetillappakonitin (**AB-11**) dan sezilarli darajada zaif. Barpubenin B (**AB-7**), leukostomin A (**AB-9**) va trabzonin (**AB-15**) birikmalarini potensial antiaritmik birikmalar deb hisoblash mumkin emas. Ushbu tadqiqot adabiyotda keltirilgan antiaritmik tuzilishi - faollik munosabatini tasdiqladi: eng faollari C_{18}-diterpenoid alkaloidlari, masalan, lappakonitin. Ushbu birikmalarning umumiy xususiyati C-4 da atsetilantranil yoki antranil kislota fragmentining mavjudligi; C-1, C-14 va C-16 da metoksil guruhlari; va C-8 da gidroksi guruhi. Farqlar C-7, C-9 va C-10 da qo‘shimcha gidroksi guruhlari mavjudligidan iborat. C-6, C-7 va C-10 da gidroksi guruhlari, C-6 da metoksil guruhi va C-6 da atsetil guruhini kiritish orqali molekulaning keyingi o‘zgarishlari antiaritmik ta’sir darajasini sezilarli darajada kamaytiradi. Ko‘p ionli kanallarning ingibitorlari bo‘lgan diterpenoid alkaloidlar sababli ushbu funksional guruhlarning faollikka bevosita ta’sirini to‘liq aniqlash oson emas.

1-Jadval. **AB-7**, **AB-9**~**AB-12**, **AB-15** and **AB-16** birikmalarining antiaritmik faolligi

Namuna [a]	EKG o‘zgarishi uchun akonitin dozasi (μg/kg)				Akonitinning o‘lim dozasi (μg/kg)
	VP	VT	VFL	VFib	
Model guruhi	47.10±9.86	90.55 ±12.25	120.83 ±28.58	227.34 ±44.52	287.82 ±46.77
AB-16 Lappakonitin	68.89 ±11.35 [b]**	152.70 ±21.39**	239.98 ±39.69**	346.11 ±53.51**	395.82 ±44.96**
AB-7 Barpubenin B	44.79 ±9.66	134.10 ±6.74**	204.79 ±12.21**	261.89 ±25.42	325.91 ±23.56
AB-9 Leukostomin A	48.15 ±4.20	140.27 ±20.59**	228.04 ±38.83**	305.99 ±46.80*	328.12 ±23.33
AB-10 N-atcetilsepakonitin	93.57 ±16.71**	146.63 ±25.27**	242.86 ±60.24**	318.66 ±26.04**	371.29 ±42.11*
AB-11 N-deatcetillappakonitin	89.59 ±11.40**	183.47 ±26.57**	272.49 ±49.97**	331.26 ±35.92**	403.08 ±46.63**
AB-12 Sepakonitin	58.74 ±18.21	93.21 ±17.43	208.43 ±26.31**	295.93 ±65.47	339.84 ±54.54
AB-15 Trabzonin	45.73 ±12.17	132.65 ±23.36*	222.97 ±27.71**	315.05 ±41.32*	364.22 ±40.93

[a] Birikmalar 8 mg/kg dozada qo‘llanilgan, qo‘llash usuli 0.4 ml/20g qorin bo‘shlig‘iga yuborish. [b] ** P<0.01, * P<0.05, namuna guruhlari model guruhi bilan solishtirildi.

AB-30 birikmasi IC_{50} qiymati 13.69 μM bo‘lgan HeLa hujayra liniyalariga nisbatan kuchli sitotoksiklikni ko‘rsatdi, **AB-26** va **AB-31** birikmalari esa *S. aureus*ga qarshi kuchli ingibirlovchi faollik ko‘rsatdi. **AB-41** birikmasi *E. coli* va **AB-1**, **AB-7**, **AB-13**, **AB-25**, **AB-27**, **AB-29**, **AB-37**, **AB-38**, va **AB-41** birikmalari *S. aureus*ga qarshi o‘rtacha ingibirlovchi faollik ko‘rsatdi.

***Aconitum smirnovii* o’simligining kimyoviy birikmalari.** Ikkita yangi C_{19}-diterpenoid alkaloidlari, smirnotin A (**AS-1**) va smirnotin B (**AS-2**), shu bilan birga 21 ta ma’lum alkaloid, 14α-benzoiloksi-*N*-etil-15α-gidroksi-1α,6α,8β,16β,18-

tametoksiakonitan formiat (**AS-3**), pendulin formiat (**AS-4**), 12-atsetil-12-epi-napellin (**AS-5**), gomoxasmanin (**AS-6**), ezoxasmanin (**AS-7**), neolin (**AS-8**), bullatin C (14-atsetilneolin; **AS-9**), vilmorizin (**AS-10**), senbuzin A (**AS-11**), 12-epi-napellin (**AS-12**), 15-atsetilzongorin (**AS-13**), zongorin (**AS-14**), akonikarmixiniy A (**AS-15**), benzoilakonin (**AS-16**), 14-benzoil-8-O-metilakonin (**AS-17**), zongoramin (**AS-18**), akonitin (**AS-19**), 15*α*-gidroksineolin (**AS-20**), 12-epi-degidronapellin (**AS-21**), *N*-metillaurotetanin (**AS-22**) va retikulin (**AS-23**), Xitoy X.R.ning Shinjon-Uyg‘ur muxtor viloyati Oltoy prefekturasining Qinghe shahridan to‘plangan *A. smirnovii* ning yer ustki qismidan ajratildi. Ularning tuzilishi (**6-rasm**) spektroskopik (HR-ESI-MS, 1D va 2D NMR) tahlillar yordamida va adabiyot ma’lumotlari bilan solishtirish orqali aniqlandi. **AS-1** ning absolyut konfiguratsiyasi esa ESD qvant hisoblashlar asosida 1S, 3R, 4R, 5S, 6R, 7R, 8R, 9R, 10R, 11S, 13R, 14R, 16S, va 17R sifatida o‘rnatildi tasdiqlandi (**7-rasm**). Yuqorida keltirilgan barcha birikmalar mazkur o‘simlikdan birinchi marta ajratilgan.



6-Rasm. *Aconitum smirnovii* dan ajratilgan birikmalar tuzilishi



7-Rasm. AS-1 ning eksperimental va hisoblangan ESD spektri

Smirnotin A (**AS-1**) noyob diterpenoid alkaloid bo‘lib, ikkita benzoil guruhi saqlaydi va antiaritmik ta’sir ko‘rsatdi (**2-jadval**). Bu diterpenoid alkaloidlarning

antiaritmik tuzilishi va faolligi orasidagi bog‘liqlikni tasdiqladi, ya’ni C_{18} yoki C_{19}-diterpenoid alkaloidining ikkita aromatik murakkab efiri bitta efir yoki efir guruhi bo‘lmagan alkaloidga nisbatan yuqori faollik namoyon qiladi. Ammo shuni qayd etish lozimki, aromatik murakkab efir guruhining ortishi ularning zaharliligini oshirishi mumkin.

AS-1 ~ AS-5 uchun A549 va HeLa saraton hujayralari qatoriga nisbatan sezilarli sitotoksiklik kuzatilmadi. Ushbu ma’lumotlar diterpenoid alkaloidlarning tuzilishi-faollik munosabatlarini yanada aniqlashtirish uchun foydali bo‘ladi.

2-Jadval. **AS-1** ning EKG o‘zgarishi va sichqonlarda o‘lim uchun akonitin dozasiga ta’siri (x ±s, n = 6)

Guruhlar	Doza (mg/kg)	EKG o‘zgarish uchun Akonitin dozasi (μg/kg)				Akonitinning o‘lim dozasi (μg/kg)
		Ventrikulyar erta tug‘ilish	Ventrikulyar taxikardiya	Ventrikulyar chayqalish	Qorincha fibrilatsiyasi	
Nazorat		47.1 ±9.9	90.6 ±12.3	120.8 ±28.6	227.3 ±44.5	287.8 ±46.8
AS-1	8	46.9 ±10.7	128.5 ±25.3 *	234.3 ±35.5 **	321.8 ±51.2	396.1 ±60.3
	16	46.2 ±11.0	146.3 ±43.1	265.8 ±57.2 **	362.9 ±96.1*	413.6 ±95.9*

Eslatma: ** P < 0.01, * P < 0.05, test guruhi va nazorat guruhi o‘rtasidagi taqqoslash.

***Aconitum sinchiangense* ning kimyoviy tarkibi.** Yangi C_{20}-diterpenoid alkaloidi, sinxianin (**ASW-1**), sakkizta ma’lum diterpenoid alkaloidlar, uchta ma’lum C_{20}-diterpenoid alkaloidlar, 12-atsetil-12-epi-napellin (**ASW-2**), 12-epi-napellin (**ASW-3**) va zongorin (**ASW-8**), va beshta ma’lum C_{19}-diterpenoid alkaloidlar, neolin (**ASW-4**), talatizamin (**ASW-5**), 14-O-atseilzenbuzin A (**ASW-6**), benzoilakonin (**ASW-7**) va akonitin (**ASW-9**), Xitoy X.R.ning Shinjon, Yili viloyatining Gongliu shahridan yig'ilgan *A. sinchiangense* o‘simligidan ajratildi. Ularning tuzilishi (**8-rasm**) spektoskopik (HR-ESI-MS, 1D NMR va 2D NMR) tahllillar yordamida va adabiyot ma’lumotlari bilan solishtirish orqali aniqlandi. **ASW-1** - 16,17-epoksi guruhiga ega bo‘lgan noyob denudatin tipidagi C_{20}-diterpenoid alkaloid hisoblanadi. **ASW-2 ~ ASW-7** birikmalari ushbu o‘simlikdan birinchi marta ajratilgan.



ASW- 1 R = OH
ASW-1a R = H

ASW-2 R = OAc **ASW-4** R_1 = OH R_2 = OCH_3 R_3 = OH
ASW-3 R = OH **ASW-5** R_1 = OCH_3 R_2 = H R_3 = OH
ASW-8 R = O **ASW-6** R_1 = OH R_2 = OH R_3 = OAc

ASW-7 R = OH
ASW-9 R = OAc

8-Rasm. ASW1~ASW9 birikmalar tuzilishi

***Delphinium pseudosemulans* ning kimyoviy tarkibini o‘rganish.** Sakkizta ilgari tavsiflanmagan likoktonin turi C_{19}-diterpenoid alkaloidlari, pseudofninlar A–D (**DP1-DP4**), pseudoreninlar A–B (**DP5a, DP5b**), pseudonidinlar A–B (**DP6-DP7**),

va o‘n bitta ma’um likoktonin tipidagi C_{19}-diterpenoid alkaloidlari, tianshanizin E (**DP8**), sharvufinin B (**DP9**), potanizin A (**DP10**), likoktonin (**DP11**), delbrulin (**DP12**), izondelfelin (**DP13**), delavainlar A–B (**DP14a, DP14b**), shavureninlar A–B (**DP15a, DP15b**), kampilotin (**DP16**), va uchta ma’lum boshqa birikmalar, metil 2-(4-metoksi-2-metil-4-oksobutanamid)benzoat (**DP17**), metil 2-(4-metoksi-3-metil-4-oksobutanamid)benzoat (**DP18**) va geptan kislota (**DP19**) Xitoy X.R Shinjon Uyg‘ur muxtor viloyatiga xos endemik tur *D. pseudosemulans* o‘simligidan ajratildi. Ularning tuzilishi (**9-rasm**) spektoskopik (HR-ESI-MS, 1D NMR va 2D NMR) tahllillar yordamida va adabiyot ma’lumotlari bilan solishtirish orqali aniqlandi. **DP-1 ~ DP-5** kamdan-kam uchraydigan C_{19}-diterpenoid alkaloidlari bo‘lib, iminiy spirtiga ega. **DP5 (DP5a** va **DP5b), DP14 (DP14a** va **DP14b)** va **DP15 (DP15a** va **DP15b)** birikmalari *Delphinium*da keng tarqalgan uch juft regioizomerik C_{19}-diterpenoid alkaloidlardir. Tekshirilgan barcha birikmalar sitotoksiklik ko‘rsatmadi. Adabiyot ma’lumotlari bilan birgalikda, C_{19}-diterpenoid alkaloidlarida likoktonin tipidagi birikmalarning sitotoksik faolligi akonitin turiga qaraganda zaifroq degan xulosaga kelish mumkin.



9-Rasm. DP1~DP19 birikmalar tuzilishi

***Delphinium naviculare* var. *lasiocarpum* ning kimyoviy birikmalarining tadqiqoti.** Uchta yangi diterpenoid alkaloidi, navikonin, navikulin va navikonitin (**DN1**-**DN3**), 15ta ma'lum diterpenoid alkaloid bilan birga, likoktonin (**DN4**), 8-O-Metil likoktonin **(DN5**), lappakonitin **(DN6**), *N*-deatsetillappakonitin **(DN7**), *N*-deetillappakonitin **(DN8**), izolappakonitin **(DN9**), sinomontanin F **(DN10**), sinomontanin A **(DN11**), lappakonin (**DN12**), ranakonin (**DN13**), trabzonin **(DN14**), potanizin A **(DN15**), *N*-atsetilsepakonitin **(DN16**) va pseudoreninlar A-B **(DN17a** va **DN17b**), 3ta benzil izoquinolin alkaloidlar, izoquinoliniy (**DN20**), 1,2,3,4-tetragidro-6-metoksi-1-[(4-metoksifenil)metil]-2-metil-7-izoquinolinol/7-isoquinolinol (**DN21**) va 2-metoksi-5-[(1,2,3,4-tetragidro-6,7-dimetoksi-2-metil-1-izoquinolinil)metil]-1,3-benzoldiol (**DN25**), 4 ta boshqa alkaloid, benzoy kislota 2-[(4-metoksi-1,4-dioksobutil)amino]-meti efiri **(DN18**), 2-atsetamidobenzoy kislota (**DN19**), giemalin/furo[3,2-*g*]quinolin-7(*8H*)-on,9-[(3-metil-2-buten-1-il)oksi] (**DN22**) va metil 2-formil-1,2,3,4-tetragidroizoquinolin-3-karboksilat (**DN27**), shuningdek, 3ta boshqa birikma, 8-izopenteniloksipsoralen (**DN23**), 7-metoksi-8-izopentenilkumarin (**DN24**) va 2*H*-1-benzopiran-2-on,3-(atsetiloksi)-3,4-digidro-,(3*R*) (**DN26**) *D. naviculare* var. *lasiocarpum* W. T. Wang o'simligidan ajratildi. Ularning tuzilishi (**10-rasm**) spektoskopik (HR-ESI-MS, 1D NMR va 2D NMR) tahllillar yordamida va adabiyot ma'lumotlari bilan solishtirish orqali aniqlandi.

Ajratib olingan diterpenoid alkaloidlar jami 3ta skelet va 5 ta subskelet turini, shu jumladan, 7ta lappakonitin tipidagi C_{18}-diterpenoid alkaloidini, 3ta ranakonitin tipidagi C_{18}-diterpenoid alkaloidini, 1ta akonitin tipidagi C_{19}-diterpenoid alkaloidini, 6ta likoktonin tipidagi C_{19}-diterpenoid alkaloid va 1ta getidin tipidagi C_{20}-diterpenoid alkaloidini o'z ichiga oladi.

Ajratilgan birikmalarning *in vitro* o'smaga sitotoksikligi MTT usuli bilan tekshirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bu birikmalar inson yo'g'on ichak saratoni HT-29 hujayrasi, ko'krak saratoni MDA-MB-231 hujayrasi va inson bachadon bo'yni saratoni HeLa hujayralarini ingibirlovchi faollikka ega emas. Antibakterial faollik skrining natijalari shuni ko'rsatdiki, faqat **DN24** birikmasi *Staphylococcus aureus*ga qarshi kuchsiz antibakterial faollik namoyon qildi. Qolgan birikmalar *Candida albicans*, *Escherich coli* va *Staphylococcus aureus*ga qarshi antibakterial faollikni ko'rsatmadi.

D. naviculare var. *lasiocarpum* tarkibidagi lappakonitin (**DN6**) miqdori YuSSC usulida aniqlandi. Natijalar *D. naviculare* var. *lasiocarpum* o'simligidagi lappakonitin miqdori 0.25% ekanligini ko'rsatdi. Diterpenoid alkaloid birikmalar vakili sifatida lappakonitin asosan *Aconitum* turlarida, jumladan, *Aconitum sinomontanum* da uchraydi va *Delphinium* turlarida juda kam uchraydi. Olingan natija *D. naviculare* var *lasiocarpum* lappakonitininng yangi zahira manbai sifatida ishlatilishi uchun nazariy asos yaratadi.



10-Rasm. DN1-DP27 birikmalar tuzilishi

